



## O‘ZBEKISTON –GERMANIYA: MADANIY ALOQALARNI RIVOJLANISHI

Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti, “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

(zeboismatullaeva705@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14786107>

**Rezuyume.** Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Germaniya bilan madaniy aloqalarini rivojlanish jarayonlari tahlil etilgan. Muallif ushbu aloqalar ayniqsa musiqa va raqs, teatr va kino, muzeylar va badiiy ko‘rgazmalar hamda madaniyat kunlari doirasida amalga oshirayotganligi dalillar asosida k o‘rasatib bergan.

Tayanch tushunchalar: Madaniy hamkorlik, musiqa, raqs, teatr, kino, muzey, badiiy ko‘rgazmalar, sharq taronalari, san‘at, festival, sharqshunos, etnograf, folklor, adabiyot, madaniy meros.

### Abstract.

#### Key concepts:

**Резюме.** В данной статье анализируется процесс развития культурных связей Республики Узбекистан с Германией. Взаимодействие между двумя народами автор показал на примере конкретных фактов проведения дней культуры, художественных выставок, мероприятиями в сфере музыки, киноискусства, театра, танцев.

Основные понятие. Культурное сотрудничество, музыка, танцы, театр, кино, музей, художественные выставки, восточные мелодии, искусство, фестиваль, востоковед, этнограф, фольклор, литература, культурное наследие.

O‘zbekiston respublikasi jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari bilan turli sohalarda hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda. Ana shunday istiqbolli aloqalar jahonning rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan Germaniya respublikasi bilan madaniy sohalarda rivojlantirilib kelinmoqda. Ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil o‘rnatilgan bo‘lib, o‘tgan chorak asr davomida ulkan yutuqlarga erishildi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federal kantsleri ushbu muhim sana munosabati bilan bir-birlarini qutlab, istiqbolda hamkorlik aloqlarini yanada rivojlantirish haqida fikr bildirishgan .

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida Germaniya bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda barqaror hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda ikki davlat o‘rtasida 130 dan ortiq hujjatdan iborat mustahkam huquqiy baza yaratilgan va barcha darajadagi munosabatlar uchun ishonchli mexanizm mavjud . O‘zbekiston iqtisodiyotiga keyingi 15 yilda Germaniyaning 784 milliondan ortiq to‘g‘ridan - to‘g‘ri investitsiyalari va kreditlari jalb etilgan. O‘zbekistonda Germaniya Federativ Respublikasi investitsiyasi ishtirokida 113 korxonalar, shundan 27 tasi to‘la Germaniya kapitali asosida faoliyat yuritmoqda.

Ikki tomonlama aloqalarda madaniy-gumanitar soha alohida ajralib turadi. Chunki madaniy aloqalar xalqlarni yaqinlashtirib, ikki tomonlama munosabatlarni rivojida muhim o‘rin tutadi.

Madaniy sohada hamkorlikni o‘tgan chorak asrda davomida erishilgan yutuqlarini sarhisob qilib, ancha natijalarga erishilganligini ko‘rish mumkin.

Ikki tomonlama madaniy aloqalarni quyidagi to‘rt yo‘nalishda rivojlanayotganligini ko‘rish mumkin. Ular musiqa va raqs, teatr va kino, muzeylar va badiiy ko‘rgazmalar hamda madaniyat kunlari yo‘nalishlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya madaniy hamkorligida musiqa va raqs san‘ati sohasi alohida ahamiyat kasb etib, o‘tgan davr mobaynida bir qator tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, O‘zbekistonning mashhur Mukarrama Turg‘unboeva nomidagi «Bahor» xalq raqs ansambli 1995 yil oktabr oyida «Berlin–Branderburg» jamiyati tomonidan uyushtirilgan O‘zbekiston haftaligida ishtirok etdi. Germaniyada boshlangan madaniy tadbirlar M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida davom etadi. Bu yerda 1995 yil dekabr oyida o‘tkazilgan «Organ musiqasi» festivalida Germaniyalik musiqachi–larning ishtiroki bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlandi. Shunday tadbirlardan biri, 1996 yil 10–



17 oktyabr kunlari Germaniyaning Berlin shahrida joylashgan Bax nomidagi musiqa gimnaziyasi vakillari tashrifi bilan Toshkentda bir nechta tadbirlar tashkil etildi .

Ushbu jarayonni quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin. 1997 yil Samarqand shahrida o‘tkazilgan «Sharq taronalari» festivalida jami 31 mamlakat va 2 ta xalqaro tashkilot vakillari qatnashgan bo‘lsa, ulardan 6 tasi Yevropa Ittifoqiga to‘g‘ri kelib, 23 nafar musiqa ustalari ishtirok etdi. 2005 yil o‘tkazilgan festivalda esa 291 kishi 50 ta mamlakatdan qatnashgan bo‘lsa, 76 ishtirokchi 13 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga to‘g‘ri keldi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, «Sharq taronalari» festivallarida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida faol ishtirok etuvchilar qatorida Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Italiya, Frantsiya davlatlarini tilga olish mumkin .

O‘zbekiston Respublikasining Germaniyadagi elchixonasi taklifiga va Madaniyat ishlari vazirligining tavsiyasiga binoan 2000 yil 3– 10 iyul kunlari Germaniyaning Bremen shahrida Yevropa davlatlarining regional musiqa va raqs festivali bo‘lib o‘tdi. Unda Yevropadan Angliya, Germaniya, Chexiya, Italiya, Portugaliya, Frantsiya davlatlari qatorida O‘zbekistondan «Umid» xalq folklor – raqs jamoasi qatnashdi. Festival davomida «Umid» xalq dastasining raqqosasi N. Abdullayeva, raqqosalar A. To‘xtasinova, Sh. Raximova, surnaychi A. Xojiboyev, ayniqsa, raqqos-baletmeyster R. Abdullaevlarning san‘atlari yuqori baholandi .

O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya o‘rtasidagi madaniy aloqalarda teatr va kino san‘ati ham alohida o‘rin egallaydi. Bu ikkala san‘at sohasi xalqlarning bir-biri bilan yaqinlashuviga va sahna ko‘rgazmalari orqali milliy madaniyat yutuqlari haqidagi taassurotga ega bo‘lishga xizmat qiladi.

Shu asosda, o‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya o‘rtasida ko‘plab turli tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Masalan, 1993 yil oktyabrda O‘zbekistonda birinchi marta «Teatr: Sharq– G‘arb» xalqaro teatr festivali tashkil etildi. Ushbu festivalda dunyoning 25 ta mamlakat vakillari jumladan Germaniya ham ishtirok etdi . Va ushbu festival an‘anaviy tarzda o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yillarida Toshkentda Yevropa kino festivalini o‘tkazish an‘anaga aylandi . 1999 yil Yevropa Ittifoqining to‘rtta davlati – Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya va Frantsiya elchixonalari tashabbusi bilan kino festivali tashkil etildi.

Yevropa mamlakatlari tomoshabinlari O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimov asari asosida ishlangan hujjatli fil‘mni ham katta qiziqish bilan qabul qilishdi. 1999 yil Angliya, Germaniya, Belgiya va Frantsiya shaharlarida «Iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanish asoslari» filmining uchinchi qismi namoyishi bo‘lib o‘tdi .

Film O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyati, xorijiy sheriklar bilan hamkorligi haqida, xorijlik investorlar ishlari uchun yaratilgan kafolat va huquqiy asoslar haqida bo‘lib, ishtirokchilarda kuchli taassurot qoldirdi. Albatta, o‘zbek hujjatli kino mahsulotlari O‘zbekiston haqidagi yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirib va eng muhimi, xalqlarni o‘zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirishga hamda do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda ulkan hissa bo‘lib q o‘shildi.

San‘at ko‘rgazmalarining davomi sifatida 1996 yil Germaniya muzeylarining faoliyati bilan tanishtiruvchi «Buyuk ipak yo‘lidagi devorga chizilgan rasmlar» va «Albrext Dyurning yog‘och gravyuralari» nomli ko‘rgazmalar O‘zbekiston davlat san‘at muzeyida uyushtirildi. Hamkorlikning izchil davomi sifatida Qoraqalpog‘iston davlat muzeyi kolleksiyasidagi grafik ishlarni 1996 yil bir oy davomida Xemnits san‘at muzeyida nemis san‘at ixlosmandlariga namoyish etilganligida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbek – nemis madaniy hamkorligi ikki davlatda o‘tkazilib kelinayotgan madaniyat kunlari bilan mustahkamlanib kelmoqda .Toshkent shahrida tashkil etilgan shunday yirik tadbirlardan biri 1996 yil sentyabrdan to dekabr qadar davom etgan nemis madaniyat kunlari bo‘ldi. Madaniyat kunlari doirasida nemis yoshlari filarmoniyasi, Georg Glazl nomidagi Bovariya kamer musiqa ansambli, «Zinger Pur» vokal ansambli, «M. Voking on ze vota» rok guruhining kontsertlari, Ketturket plastika va qo‘g‘irchoq teatrining spektakllari, organ cholg‘uchisi M.Shenxaytning chiqishlari, Germaniya kinosining namoyishi va uning vakillari bilan uchrashuvlar, nemis adabiyotiga bag‘ishlangan seminarlar tashkillashtirildi. Tadbir o‘zbekistonlik san‘at ixlosmanlarida juda katta taassurot qoldirib, nemis xalqi madaniyati va urf-odatlari bilan tanishib, hurmatlari yanada oshdi . Shuningdek, Davlat san‘at muzeyi va Alisher Navoiy nomidagi



davlat kutubxonasidagi ko'rgazmalar namoyishi, o'zbek va nemis sharqshunoslari, etnograflari hamda ekologlarining o'zaro uchra-shuvlari tashkil etilib, shu sohalarida erishilgan yutuq va tajribalar bilan o'rtoqlashildi. Ushbu tadbir nafaqat Toshkent shahrida, balki respublikaning madaniy markazlari Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Nukus shaharlarida ham ko'tarinki ruhda o'tkazilib, yuksak ehtiromga sazovor bo'ldi.

O'zbek – german madaniy hamkorligining davomi sifatida 1999 yil

1 yanvarda tashkil etilgan «Germaniyaning 70-yillariga oid grafikasi» ko'rgazmasi ochildi. Ikki davlat o'rtasida ko'rgazmalar tashkil etish an'anaga aylanib bormoqda. Turli yo'nalishlarni qamrab olgan ushbu ko'rgazma Gyote institutining Toshkentdagi vakolatxonasi tomonidan taqdim etilgan. Ular orasida nemis realistlarining yangi vakili P'er Reston asarlarining ham borligi unga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi.

Germaniyaning Frayburg shahrida 2001 yil 11 iyunida « O'zbekiston kunlari» negizida katta fotok o'rgazma bo'ldi. Bunda O'zbekistonning boy tarixi, mutafakkirlari, arxitekturasi va boshqa madaniy merosi foto ixlosmandlariga taqdim etildi. Ko'rgazma ochilishida germaniyalik olimlar mamlakatning jahon xalqlari ilm-fani va madaniyatining rivojlanishiga qo'shgan hissasini ta'kidlab, insoniyat sivilizatsiyasidagi munosib o'rni e'tirof etildi.

2016 yil 28-30 mart kunlari Germaniyaning Frayburg, Xaydelberg va Offenberq shaharlarida O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi. Uch kun davomida bo'lib o'tgan tadbir dasturlaridan GFR taniqli olimlarining O'zbekiston tarixiy merosi va zamonaviy rivojlanishi. Navro'z bayramining o'ziga hosligiga oid ma'ruzalari taqdimotlaridan joy oldi. Tadbirda ishtirok etgan Xaydelberg pedagogika instituti rektori Xans-Varner Xuanke, ikki tomonlama hamkorlikda ilmiy – ma'rifiy yo'nalishlarda ham jiddiy rivojlanib boryotganini ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, o'zi rahbarlik qilayotgan oliy o'quv yurti va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogik universiteti o'rtasidagi akademik almashuvlarning jadallashib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur ta'lim muassasalari talabalar uchun stipendiya ajrtaayotganidan tashqari, O'zbekistonda "Germanistika" yo'nalishi uchun qo'shma o'quv dasturlarini tayyorlash bilan shug'ullanyotganligi ma'lum qilindi.

Ikki tomonlama aloqlarning rivojiga 2016 yil 30 martida O'zbekistonga Germaniya federal tashqi ishlar vaziri. yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining amaldagi raisi Frank-Valter Shtaynmayerni tashrifi muhim bosqich bo'ldi. Tashrif davomida madaniy - gumanitar aloqlarni izchil rivojlantirish, ta'limga oid qo'shma loyihalarni amalga oshrishga oid kelishuvlar imzolandi.

Demak, O'zbekiston Respublikasining Germaniya bilan fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi hamkorlik masalalarini tahlil qilib turli mamlakat xalqlari taraqqiyot darajasi va madaniy turmush-tarzi har xil bo'lishiga qaramasdan, o'zaro aloqalarni kengaytirishdan manfaatdorligini ko'rish mumkin. Fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar bilan tajriba almashish davlatlararo aloqalar rivojida muhim o'rin tutib, o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi..